

60110500 – Boshlang‘ich ta‘lim

bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi.

60110500 – Boshlang‘ich ta‘lim ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi oliy ta‘limning dasturi asosida amalga oshiriladi, uning nazariy va amaliy mashg‘ulotlarini to‘liq o‘zlashtirgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o‘tgan shaxsga «bakalavr» malakasi (darajasi) hamda oliy ma‘lumot to‘g‘risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjat(lar) beriladi.

60110500 – Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60110500 – Boshlang‘ich ta‘lim ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyati quyidagilarni qamrab oladi:

- umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida “Ona tili”, “O‘qish”, “Matematika”, “Texnologiya”, Geografiya tarkibidagi: “Tabiatshunoslik”, “Atrofimizdagi olam”,
- “Tarbiya”, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘lim muassasalarida kasbiy fanlaridan o‘rnatilgan tartibda dars berish;
- umumiy o‘rta ta‘lim maktablari, ixtisoslashtirilgan maktab, kasb-hunar kollejlari va maktabdan tashqari muassasalarida o‘qituvchi (tashkilotchi) bo‘lib ishlash;
- ta‘lim tizimida kabinet mudiri, laborant va unga tenglashtirilgan lavozimlarda
- ishlash;
- mos ta‘lim yo‘nalishlar bo‘yicha ta‘limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida metodist bo‘lib ishlash;

Ilmiy-tadqiqot faoliyati:

- ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida kichik ilmiy xodim bo‘lib ishlash;
- mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari hamda joylardagi ma‘naviyat va ma‘rifat markazlarida ishlash;
- boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi va texnologiyasi, o‘qitishning didaktik vositalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Bitiruvchilar kasbiy qayta tayyorlashdan o‘tgandan keyin oliy, umumiy o‘rta ta‘lim, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta‘lim muassasalarida ta‘limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan turdosh (sohaga mos) fanlarni o‘qitish imkoniyatiga ega bo‘ladi.